

## SHARTNOMA № 45008

Joriy ta'mirlash ishlarini amalga oshirish yuzasidan

2022-yil 22-sentyabr

Farg'ona shahri

Ushbu shartnoma bir tomondan Farg'ona shahar Xalq ta'limi bo'limi nomidan bo'lim mudiri G.A.Xalilova vakilligida kelgusida "Buyurtmachi" va ikkinchi tomondan "FAR DOM" MCHJ nomidan rahbar B.VASIYEVA vakilligida kelgusida "Pudratchi" o'rtasida har ikki tomonning amaldagi "Nizom"lari va O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi va "Xo'jalik yurituvchi sub'yektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida"gi Qonuniga, shuningdek, boshqa amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq quyidagi mazmunda tuzdilar:

### 1. Shartnoma predmeti.

1.1. "Pudratchi" mazkur shartnoma shartlariga asosan Farg'ona shahar Xalq ta'limi tasarrufidagi 1-umumiy o'rta ta'lim maktab xo'jatxonasini joriy ta'mirlashni loyiha-smeta hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda bajarish majburiyatini oladi, "Buyurtmachi" esa bajarilgan ishlarni belgilangan tartibda qabul qilib oladi.

### 2. Shartnoma bahosi.

2.1. Mazkur shartnoma bo'yicha "Pudratchi" tomonidan bajariladigan ta'mirlash ishlari qiymati loyiha smeta hamda ekspertiza hujjatlariga asosan barcha soliqlar, yig'imlar, ajratmalar, QQSni hisobga olgan holda jami 98 000 000.00 (to'qson sakkiz million) so'mni tashkil etadi.

2.2. Zaruriy asoslar mavjud bo'lganda "Buyurtmachi" va "Pudratchi"ning kelishuviga asosan mazkur shartnomaga qo'shimcha bitim rasmiylashtirilishi mumkin.

### 3. Hisob-kitob qilish tartibi.

3.1. "Pudratchi" tomonidan ta'mirlash ishlari to'liq bajarilgandan so'ng, o'zaro solishtiruv dalolatnomalariga asosan, bajarilgan ishlar qiymati uchun "Buyurtmachi" pul o'tkazish yo'li bilan to'lovni amalga oshiradi.

3.2. "Buyurtmachi" oldindan shartnoma umumiy summasini 30 foiz miqdorida 29 400 000.00 (yigirma to'qqiz million to'rt yuz ming) so'm avans to'lovini "Pudratchi" hisob raqamiga o'tkazib beradi. Keyingi hisob-kitoblar haqiqatda bajarilgan ishlar hajmiga qarab, avans mablag'larini chegirgan holda amalga oshiriladi.

### 4. Ishlarni bajarish tartibi va muddatlari.

4.1. "Buyurtmachi" tomonidan oldindan to'lov amalga oshirilgan kundan boshlab 45 ish kun muddat ichida "Pudratchi" tomonidan ta'mirlash ishlari yakunlanishi shart.

4.2. "Pudratchi" bajariladigan ishlarni loyiha-smeta hujjatlari hamda amaldagi qurilish qoidalari va me'yorlari talablariga muvofiq bo'lishini va sifatli bajarilishini ta'minlaydi.

4.3. "Pudratchi" ishlarning bajarilishini texnika xavfsizligi, mehnat muhofazasi va yong'in xavfsizligi talablariga rioya qilgan holda amalga oshiradi.

### 5. Tomonlarning huquq va majburiyatlari.

5.1. "Pudratchi" mazkur shartnomada nazarda tutilgan ta'mirlash ishlarini loyiha-smeta hujjatlariga asosan to'liq hajmda va belgilangan muddatlarda bajarish majburiyatini oladi. Loyiha-smeta hujjatlariga mos kelmagan ishlar "Buyurtmachi" tomonidan qabul qilinmaydi va shartnoma shartlari bajarilmaganligi uchun "Pudratchi"ga shartnoma shartida kelishib olingan pul mablag'lari o'tkazib berilmaydi.

5.2. "Buyurtmachi" ta'mirlash ishlari jarayonida bajarilayotgan ishlarni loyiha-smeta hujjatlariga mosligini va sifatini nazorat qilib boradi, hamda "Pudratchi"dan loyiha-smeta hujjatlariga mos ravishda qurilish ishlarini olib borishni talab qilishga haqli.

5.3. "Buyurtmachi" tomonidan "Pudratchi"ga ta'mirlash ishlarini bajarishi uchun zaruriy sharoitlarni yaratib beradi va bajarilgan ishlar bo'yicha tuzilgan Shakl-2 dalolatnomalarini qabul qilib oladi.

5.4. "Buyurtmachi" tomonidan tuzilgan dalolatnoma (qurilish ishlarini belgilagan talablarga mosligini tekshirish dalolatnomasi) asosida bajarilgan ishlarda kamchilik va nuqsonlar aniqlangan taqdirda, "Buyurtmachi" tomonidan alohida dalolatnoma rasmiylashtiriladi va 3 kun muddat ichida "Pudratchi"ga xabar yuboriladi. "Pudratchi" tomonidan ushbu aniqlangan kamchilik va nuqsonlar o'z mablag'i va o'z kuchi bilan 10 kun davomida bartaraf etiladi. Bartaraf etilmagan taqdirda "Pudratchi"ga shartnoma shartida kelishib olingan pul mablag'lari o'tkazib berilmaydi hamda qonunchilik hujjatlarida nazarada tutilgan choralar amalga oshiriladi.

### 6. Tomonlarning javobgarligi.

6.1. Tomonlardan biri shartnoma shartlarini bajarmagan yoki zarur darajada bajarmagan taqdirda aybdor tomon ikkinchi tomonga yetkazilgan zararni to'liq qoplaydi.

6.2. Agar "Pudratchi" tomonidan bajarilishi lozim bo'lgan ta'mirlash ishlari belgilangan muddatda boshlanmasa va yakunlanmasa, "Pudratchi" bajarilmagan ishlar qiymatining 0.5 foiz miqdorida har bir muddati o'tgan kuni uchun "Buyurtmachi"ga penya to'laydi, lekin bunda penyaning umumiy summasi bajarilmagan ishning qiymatining 50 foizidan oshmasligi kerak. Penya "Buyurtmachi" tomonidan shartnoma sharti bo'yicha qurilish ishlari yakunlanishi belgilangan kundan boshlab kechiktirilgan kun oralig'idagi muddat hisobga olingan holda bir tomonlama amalga oshiriladi.

6.3. "Pudratchi" tomonidan ta'mirlash ishlari belgilangan muddatlarda yakunlangandan keyin "Buyurtmachi" tomonidan to'lovlar o'z muddatida amalga oshirilmasa to'lanmagan summani 0,4 foiz miqdorida har bir muddati o'tgan kun uchun "Pudratchi"ga penya to'laydi, lekin bunda penyaning umumiy summasi o'tkazib berilmagan mablag'lar summasining 50 foizidan oshmasligi kerak.

6.4. Penyalar to'lanishi taraflarni shartnomada belgilangan majburiyatlarini bajarishdan ozod etmaydi.

### 7. Fors-major holatlari.

7.1. Agar ushbu shartnoma bo'yicha majburiyatlar qisman yoki to'liq bajarilmasligi, tabiat hodisalari, urush, ommaviy tartibsizliklar, hukumat qarorlari va boshqa yengib bo'lmay kuch holatlari natijasida kelib chiqsa, tomonlar javobgarlikdan ozod etiladilar.

### 8. Korrupsiyaga qarshi qo'shimcha shartlar.

8.1. Taraflar shartnoma tuzishda, shartnomaning amal qilish muddatida va ushbu muddat tugaganidan so'ng, shartnoma bilan bog'liq korrupsiyaviy harakatlarni sodir qilmaslikka kelishib oladilar.

8.2. Taraflar shartnomadagi korrupsiyaga qarshi qo'shimcha shartlarda belgilangan korrupsiyaning oldini olish choralarni tan oladi va ularga rioya etilishi bo'yicha xamkorlikni ta'minlaydilar.

8.3. Har bir taraf shartnoma tuzilgan paytda bevosita o'zi yoki uning ijroiya organlari, mansabdor shaxslari va xodimlari tomonidan shartnoma bilan bog'liq munosobalar yuzasidan qonunga xilof ravishda pul, moddiy qiymatliklar berilmaganligini, shartnoma tuzilishi evaziga norasmiy pul yoki boshqa moddiy qiymatliklar olinishga yo'l qo'yilmaganligini, taklif etilmaganligini, ularni berishga va'da qilinmaganligini, shuningdek moddiy yoki har qanday turdagi imtiyoz, ustunliklar olinmaganligini (kyelajakda bu turdagi xarakatlarni amalga oshirishi mumkinligi haqida tassurot qoldirmaganligini) kafolatlaydi. Taraflar, ular tomonidan shartnoma doirasida jalb qilingan shaxslarning (yordamchi pudratchi tashkilotlar, agentlar va taraflar nazorati ostidagi boshqa shaxslarning) yuqoridagi xarakatlarni sodir etmasligi yuzasidan oqilona choralar ko'radi.

8.4. Ushbu holat bo'yicha bir taraf ikkinchi tarafni hamda vakolatli davlat organlarini darhol xabardor qilishi shart.

8.5. Taraning talabi bo'yicha ikkinchi taraf tomonidan qoidabuzarliklarni bartaraf qilish bo'yicha oqilona muddat ichida tegishli choralar ko'rilmagan yoki ko'rib chiqish natijalari haqida xabardor qilmagan taqdirda, ushbu taraf shartnomani bir tarafdama to'xtatib turishga, bekor qilishga hamda zararni to'liq qoplab berishni talab qilishga haqli.




### 9. Qo'shimcha shartlar.

9.1. Ushbu shartnomani bajarish, o'zgartirish va uni bekor qilishda paydo bo'ladigan nizolar eng avvalo, taraflarning kelishuvi bilan hal qilinadi. O'zaro kelishilmasa "Buyurtmachi" joylashgan hududdagi iqtisodiy sud va O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunlari tartibida hal qilinadi.

9.2. Shartnoma taraflarning o'zaro kelishuviga asosan yoki O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksiga hamda amaldagi qonun hujjatlari normalariga binoan keltirilgan zararlarni to'lagan holda muddatidan ilgari bekor qilinishi mumkin.

9.3. Ushbu shartnoma 2022-yil 31-dekabrgacha amal qiladi. Shartnoma ikki tomonlama imzolaniib, hududiy g'aznachilik bo'limida ro'yxatdan o'tkazilganidan so'ng qonuniy kuchga kiradi.

### 10. Tomonlarning manzillari va boshqa rekvizitlari.

«IJROCHI»	«BUYURTMACHI»
<p data-bbox="405 1182 699 1209">" FAR DOM " MCHJ</p> <p data-bbox="225 1245 699 1272">Manzil: Farg'ona sh B.Marg'iloniy . 35-uy</p> <p data-bbox="225 1279 480 1305">Tel: 998 91 678 86 77</p> <p data-bbox="225 1312 587 1339">X/r.: 2020 8000 905 231 676 001</p> <p data-bbox="225 1346 762 1373">Bank nomi "IPAK YULI BANK" Farg'ona filiali</p> <p data-bbox="225 1379 363 1406">MFO: 01168</p> <p data-bbox="225 1413 608 1440">Tashkilotning STIRi: 307 433 603</p> <p data-bbox="225 1447 379 1473">IFUT(okonx):</p> <p data-bbox="272 1585 699 1612">Raxbar:  B.Vasiyeva.</p> 	<p data-bbox="911 1182 1337 1209">Farg'ona shahar xalq ta'limi bo'limi</p> <p data-bbox="911 1245 1289 1272">Manzil: Farg'ona sh. Sanoat, 17 uy</p> <p data-bbox="911 1279 1230 1305">Tel./faks: +(8 373) 244-33-53</p> <p data-bbox="911 1312 1358 1339">Shg'h 1000228603400179096300075050</p> <p data-bbox="911 1346 1305 1373">Tashkilotning STIRI : 200150971,</p> <p data-bbox="911 1379 1134 1406">IFUT(okonx): 97600</p> <p data-bbox="911 1413 1453 1440">Farg'ona shahri bo'yicha G'aznachilik bo'linmasi</p> <p data-bbox="911 1447 1310 1473">YaG'H: 23 402 000 300 100 001 010</p> <p data-bbox="911 1480 1549 1507">Bank nomi: Markaziy bankning Toshkent shahar Bosh</p> <p data-bbox="911 1514 1453 1541">boshqarmasi Hisob-kitob kassa markazi (HKKM)</p> <p data-bbox="911 1547 1038 1574">MFO:00014</p> <p data-bbox="911 1581 1422 1608">G'aznachilik bo'linmasining STIR: 201122919</p> <p data-bbox="959 1615 1390 1641">Mudir  v.Xalilova</p>

**YURIDIK AHAMIYATGA EGA HUJJATLARNING  
QONUNCHILIK HUJJATLARIGA MUVOFIQLIGI TO‘G‘RISIDA  
HUQUQIY XULOSA**

**№ GE4656504435**

**1. Loyiha turi:** shartnomaga. №45008

**2. Loyiyaning nomi:** Xalq ta’limi tasarrufidagi 1-umumiy o’rta ta’lim maktab xojatxonasini joriy ta’minlash haqida.

**3. Loyiha ishlab chiquvchisi va kiritilgan sana haqidagi ma’lumot:**

Farg‘ona shahar Xalq ta’limi bo’limi tomonidan ishlab chiqilgan va kuni “E-huquqshunos” elektron tizimi orqali huquqiy ekspertizaga taqdim etilgan.

**4. Loyiha bo’yicha taklif:** Loyiha amaldagi qonunchilik hujjatlariga muvofiq to’g’ri rasmiylashtirilgan.

Yuqoridagilarni inobatga olib, huquqiy ekspertizadan o‘tkazish natijalariga ko‘ra,


**X U L O S A**

Loyiha amaldagi O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi va O‘zbekiston Respublikasining “Xo‘jalik yurtituvchi subyektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to‘g‘risida”gi Qonuni va qonunchilik hujjatlariga muvofiq ishlab chiqilgan va uni qabul qilish maqsadga muvofiq.

Markaz bosh yuriskonsulti



Mirsoliyev.Z



22.09.2022 yil

Farg'ona shahri

**Farg'ona shahar tasarrufidagi 1-maktab xojatxonasini joriy ta'mirlash ishlari uchun 147411 lot raqamli e'lonning 19.09.2022-yil kungi elektron bayonnomasi muxokama natijalari to'g'risidagi xarid komissiyasining tegishli majlisi**

### BAYONNOMA XULOSASI


1. Farg'ona shahar tasarrufidagi 1-maktab joriy xojatxonasini ta'mirlash ishlari uchun mahalliy byudjetdan ajratilgan mablag'lar hisobi va xarajatlarning iqtisodiy tasnifi bo'yicha mos keladi.
2. Farg'ona shahar tasarrufidagi 1-maktab xojatxonasini joriy ta'mirlash ishlari yuzasidan 19.09.2022-yil kuni tuzilgan xarid komissiyasining elektron bayonnomasi yo'llangan tijorat takliflarni baxolash asosida tuzilgan.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 22-apreldagi "Davlat xaridlari to'g'risida"gi (O'RQ-684-son) Qonunning 7-bob 62-moddasining 3-va 7-bandariga asosan etender.uzex.uz maxsus axborot portalidagi 19.09.2022-yil kuni tuzilgan xarid komissiyasi elektron bayonnomasining ikki kunlik muxokama vaqtida xech qanday e'tirozlar kelib tushmaganligi sababli elektron bayonnomada g'olib deb topilgan "TOXIR-MADAD QURILISH" MCHJ bilan belgilangan tartibda 98 000 000.00 (to'qson sakkiz million)so'mlik shartnoma tuzilsin.

Komissiya a'zolari:

U.Tursunaliyev 

A.Umarov 

SH.Isaqov 

Z.Kasimova 

Komissiya kotibi A.Aliyeva 